

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA GENERATSIYA QILINGAN OBYEKTLAR USTIDAN EGALIK HUQUQINI BELGILASH MASALALARI

Nasullayev Shahzodjon Shuxrat o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri

Tel: +99893 966 33 07

Email: Shahzodjonnasullayev@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) yordamida yaratilgan obyektlar hujjatlar, dasturlar, san'at va dizayn asarlariga nisbatan mualliflik huquqini belgilashning zamonaviy muammolari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asrida SI tizimlari mustaqil ravishda ijodiy mahsulotlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lib, bu an'anaviy huquqiy normalarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Maqolada AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va O'zbekiston qonunchiligidagi turli yondashuvlar qiyosiy o'rganilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining mualliflik huquqiga oid qonunchiligiga ko'ra asar faqat jismoniy shaxsning ijodiy mehnati orqali yaratilishi tamoyili hamda xalqaro tajribada SIga mulkiy huquqlarni berish yoki uning yaratuvchilariga tegishli deb topish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, SI texnologiyalaridan tijorat va yuridik maqsadlarda foydalanishda kelib chiqadigan javobgarlik, plagiat va huquqiy bo'shliqlar yoritilib, kelajakdagi huquqiy yechimlar bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, sun'iy intellekt, intellektual mulk, egalik huquqi, raqamli texnologiyalar, huquqiy javobgarlik, SI generatsiyasi.

ISSUES OF DETERMINING OWNERSHIP RIGHTS OVER AI-GENERATED OBJECTS

Nasullayev Shahzodjon Shuhrat ugli

Master of the Law Enforcement Academy

Annotation. This article analyzes the contemporary issues of determining copyright and ownership over objects generated by artificial intelligence (AI), including documents, programs, art, and designs. In the digital age, AI systems are capable of autonomously producing creative outputs, which necessitates a re-evaluation of traditional legal norms. The article comparatively examines various approaches in the legislation of the USA, the European Union, China, and Uzbekistan. Specifically, it discusses the principle in the copyright law of the Republic of Uzbekistan that a work must be created through the creative labor of a natural person, alongside international experiences in assigning property rights to AI or its creators. Furthermore, issues of liability, plagiarism, and legal gaps arising from the commercial and legal use of AI technologies are highlighted, and proposals for future legal solutions are put forward.

Keywords: copyright, artificial intelligence, intellectual property, ownership rights, digital technologies, legal liability, AI generation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i17/n19>

Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib, huquq tizimi oldiga yangidan-yangi masalalarni qo'ymoqda. Xususan, ijodiy faoliyat jarayonlarida ChatGPT, Midjourney yoki DALL-E kabi ilg'or neyrotarmoq tizimlarining imkoniyatlari kengayib borayotgani, ularning mustaqil tarzda maqolalar, she'rlar yozishi, rasmlar chizishi va musiqa yaratishi qizg'in

huquqiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda huquqshunoslik oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida sun'iy intellekt vositasida generatsiya qilingan asarning asl muallifi kim bo'lishi masalasi namoyon bo'ladi [4].

Mualliflik huquqining fundamental tamoyillariga ko'ra, u ijodiy faoliyat natijasida yaratilgan asarlarni yuridik jihatdan himoya qilishga qaratilgan institut bo'lib, har qanday asar muallifi sifatida qonunan faqatgina inson e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonunchiligida belgilanishicha, mualliflik huquqi himoyasi faqat jismoniy shaxsning bevosita ijodiy mehnati orqali yaratilgan obyektlarga nisbatan vujudga keladi [3]. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 8-moddasiga muvofiq, insonning shaxsiy ijodiy faoliyati ishtirokisiz, muayyan turdagi ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar mualliflik huquqi obyekti hisoblanmaydi [4]. Bu huquqiy norma hozirgi bosqichda sun'iy intellekt dasturlarini mustaqil muallif yoki huquq egasi sifatida e'tirof etishga yo'l qo'ymaydi. Bunday amaliyot AQSh mualliflik huquqi idorasi hamda Yevropa Ittifoqi sudlarining yondashuvlarida ham tasdiqlangan bo'lib, xalqaro maydonda asarning inson tomonidan yaratilgan ijodiy natija bo'lishi qat'iy talab etilmoqda [4].

Shu bilan birga, mamlakatimizda SI texnologiyalarini rivojlantirish va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha mustahkam qonunchilik bazasi yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishda yagona talablar, xavfsizlik va javobgarlikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish ustuvor vazifa qilib belgilangan [1]. Bu huquqiy qadam, sun'iy intellektidan unumli foydalanishni tartibga solish orqali uning kelajakdagi mualliflik huquqlariga ta'sirini ham o'rganishni taqozo etadi.

Qolaversa, mazkur texnologiyalar faoliyatini yanada chuqurroq tizimlashtirish maqsadida 2026-yil 14-martda tasdiqlangan 3787-son idoraviy qonunchilik hujjati – "Sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo'yicha etika qoidalari" huquqiy munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi [2]. Unda sun'iy intellekt tizimlari (ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ularning asosida mustaqil qaror qabul qilish xususiyatiga ega dasturiy ta'minot) hamda uning ishtirokchilari amal qilishi kerak bo'lgan qonuniylik, mas'uliyat, ochiqlik, shaffoflik va adolatlilik kabi bazaviy yuridik tamoyillar belgilab qo'yildi [2]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar kelajakda sun'iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan obyektlarga mualliflik huquqini birlashtirish, ulardan tijorat va yuridik faoliyatda qonuniy foydalanish mexanizmlarini yaratish hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun dastlabki huquqiy poydevor hisoblanadi [1, 4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Sun'iy intellekt va mualliflik huquqi o'rtasidagi munosabatlar xalqaro maydonda ham, milliy doirada ham ko'plab olimlar, mutaxassislar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan faol tadqiq etilmoqda [7; B.95]. Xususan, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti jurnali eksperti Andres Guadamuz o'z tahlillarida sun'iy intellektning ijodiy jarayondagi ishtirokini tarixiy va zamonaviy bosqichlarga ajratgan holda o'rganadi [6]. Uning ilmiy xulosasiga ko'ra, an'anaviy yondashuvda kompyuter dasturlari faqatgina inson ijodini qo'llab-quvvatlovchi oddiy vosita (qalam yoki mo'yqalam kabi) sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kundagi mashinali o'qitish

algoritm-lari va neyrotarmoqlar insonning bevosita ishtirokisiz, mustaqil ravishda qaror qabul qilgan holda yangi asarlar (musiqa, san'at asarlari, matnlar) yaratmoqda. Olimning alohida ta'kidlashicha, agarda qonunchilik bunday obyektlarni mualliflik huquqidan xoli deb topsa va ulardan bepul foydalanishga ruxsat etilsa, bu holat avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratishga kiritilayotgan yirik investitsiyalarga va umuman ijodiy iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin [6].

Mahalliy yuridik tadqiqotchilardan N. Sharipova o'zining maqolasida sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilgan kontent ustidan kim egalik va nazorat o'rnatishi masalasini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilgan [7; B.96]. Tadqiqotchi AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Xitoy qonunchiligi tajribasini solishtirib, bugungi kunda egalik huquqini belgilash bo'yicha uchta asosiy huquqiy yechim borligini ko'rsatib o'tadi: huquqni SI dasturini yaratgan kompaniyaga, SI foydalanuvchisiga (dasturni ma'lum bir natijaga yo'naltirgan insonga) yoki bevosita SI platformasining egasiga berish [7; B.96]. Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellekt yaratgan materiallar hozircha mualliflik huquqi obyekti hisoblanmasligi, kelajakda esa bu holat plagiat, daromadlarni taqsimlash hamda tijorat maqsadlaridagi noqonuniy harakatlarga zamin yaratishi mumkinligi haqida xulosalar berilgan [7; B.96-97].

Shu bilan bir qatorda, tadqiqotchi G. Axmadova SI texnologiyalarining paydo bo'lish tarixi va uning jamiyatga iqtisodiy ta'sirini (masalan, McKinsey instituti prognoziga ko'ra 2030-yilgacha sun'iy intellekt global miqyosda 13 trillion dollar miqdoridagi qo'shimcha mahsulot yaratishi mumkinligini) asos qilib olib, yuridik javobgarlik masalalariga to'xtaladi [8; B.561]. U mahalliy olim S. Bozarovning ilmiy tadqiqotlariga tayanib, xorijiy qonunchilikda sun'iy intellekt ishtirokidagi delikt uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning uchta yondashuvi: "Boshqa shaxs orqali sodir etish", "Tabiiy ehtimoliy oqibat" hamda "To'g'ridan to'g'ri javobgarlik" modellari borligini ta'kidlab o'tadi [8; B.563].

Texnologiyaning yuridik sohaga ta'siri doirasida Kun.uz nashri tomonidan keltirilgan chuqur tahlillarda, "sun'iy intellekt yuristning o'rnini egallaydimi?" degan ijtimoiy xavotirlarga huquqiy javob izlanadi. Zamonaviy raqamli transformatsiya shuni taqozo etadiki, sun'iy intellekt inson tafakkurining o'rnini bosuvchi emas, balki yuristlarni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy vosita bo'lib xizmat qilishi shart. XXI asr huquqshunosining muvaffaqiyati nafaqat qonun hujjatlarini mukammal bilishiga, balki SI ishlash tamoyillarini, ma'lumotlar huquqi, xalqaro texnologik standartlar va kiberxavfsizlik asoslarini chuqur o'zlashtira olishiga bevosita bog'liqligi o'z isbotini topmoqda [5].

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil va mantiqiy xulosa chiqarish kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan izchil foydalanildi. Xususan, O'zbekiston, AQSh va Yevropa Ittifoqining intellektual mulkka oid qonunchiligi hamda amaliy yondashuvlari qiyosiy tahlil orqali o'rganildi [7; B.96]. Shuningdek, SI tizimlarining huquq sohasidagi (jumladan, xavf-xatar va yuridik javobgarlik) ta'sir darajasi hamda avtonom ishlash xususiyatlari statistik, empirik va ilmiy kuzatish metodlari vositasida yoritildi [8; B.562]. Ilmiy yondashuvlar negizida SI obyektlarining yuridik maqomini belgilashga doir xalqaro huquqiy tendensiyalar umumlashtirilib, milliy qonunchiligimizni takomillashtirish yuzasidan xulosalar shakllantirildi [7; B.97].

Asosiy qism

Sun'iy intellekt (SI) vositasida generatsiya qilingan obyektlarga mualliflik huquqini belgilash masalasi jahon huquqni qo'llash amaliyotida bir xil talqin qilinmaydi. Mustaqil

mualliflar alyansi (Alliance of Independent Authors) taqdim etgan tahliliy konsepsiyaga ko'ra, sud organlari SI tomonidan yaratilgan ijodiy asarlarga nisbatan huquqni belgilashda uch xil nazariy yo'nalishni tanlashlari mumkin: birinchisi – asarlarni mualliflik huquqi himoyasidan to'liq mahrum etish; ikkinchisi – barcha mulkiy huquqlarni SI tizimi yaratuvchisiga (kompaniyasiga) berish; uchinchisi – huquqlarni SI tizimi egasi va mazkur neyrotarmoqni o'qitish (training data) uchun foydalanilgan ilk asarlar mualliflari o'rtasida adolatli taqsimlash [9]. Alyans mutaxassislari aynan uchinchi yondashuvni eng barqaror huquqiy mexanizm sifatida e'tirof etishadi. Osiyo yurisdiksiyasida, xususan, Xitoy sudi amaliyotida 2020-yilda Tencent kompaniyasining "Dreamwriter" dasturi tomonidan mustaqil yozilgan iqtisodiy maqolaga nisbatan mualliflik huquqi bevosita SI egasiga (Tencent kompaniyasiga) tegishli deb topilgan va sud qarorida matnning "muayyan darajadagi o'ziga xosligi" borligi huquqiy asos qilib ko'rsatilgan. Raqamli intellektual mulk sohasidagi hozirgi yuridik ziddiyatlar mutaxassislardan tomonidan "3A davri" (ilg'or, avtomatlashtirilgan, avtonom texnologiyalar bosqichi) inqirozi sifatida baholanmoqda. Xususan, global raqamli bozorda yirik texnologik platformalar, media korporatsiyalar hamda qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida manfaatlarning keskin huquqiy to'qnashuvi yuz bermoqda. Mustaqil ijodkorlarning o'z-o'zini nashr etish amaliyoti kengaygani sari, xalqaro mualliflik huquqi tizimining markazlashtirilmaganligi oqibatida huquq egalari hamda sun'iy intellekt (SI) tizimlarini ishlab chiquvchilar o'rtasida mulkiy huquqlar hamda yuridik javobgarlik masalalari bo'yicha jiddiy bo'shliqlar yuzaga kelmoqda [9].

Bu bo'shliqlar huquqni qo'llash amaliyotida kutilmagan huquqbuzarliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, Garvard universiteti yuridik tadqiqotchilari tomonidan tahlil qilingan mojaroli holatda, SI vositasida taniqli xonandalar (Drake va The Weeknd) ovozigacha taqlid qilib yaratilgan qalbaki musiqa asari mualliflik huquqining an'anaviy me'yorlari naqadar zaiflashganini ko'rsatib berdi. Bunday murakkab holatlarda faqatgina tayyor asarga nisbatan egalik huquqining yo'qolishi emas, balki asarni o'qitish (training data) jarayonida litsenziyalanmagan ovoz va ohanglardan ruxsatsiz foydalanish natijasida insonning shaxsiy nomulkiy huquqlari (right of publicity) to'g'ridan to'g'ri buziladi [10]. Xuddi shunday, taniqli shaxslar yoki avtorlarning (masalan, aktyor Samuel L. Jackson yoxud yozuvchi Joanna Penn) ovozi va qiyofasidan foydalanib yasalgan litsenziyasiz dipfeyk (deep fake) kontentlari nafaqat intellektual mulk obyekti, balki shaxs daxlsizligiga bo'lgan huquqlarga ham ziddir. Ushbu salbiy oqibatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida xalqaro qonunchilik tizimida keskin islohotlar amalga oshirilmoqda. Yevropa Ittifoqining 2026-yilda doiraviy jihatdan yangilanib kuchga kirgan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonuni fundamental neyrotarmoq modellarini ishlab chiquvchilar uchun o'ta qat'iy shaffoflik talablarini kiritdi. Mazkur qonun hujjatiga ko'ra, SI algoritmlarini o'qitishda qo'llanilgan barcha kontentlar Yevropa Ittifoqi mualliflik huquqi qonunchiligiga qat'iy mos kelishi hamda bazaviy axborotlarning rasmiy hisoboti (summary of training data) majburiy tartibda ochiq qilinishi qat'iyan belgilandi [11].

Texnik hamda amaliy yurisprudensiya nuqtai nazaridan yuridik nizolarning oldini olishning eng maqbul yo'li — "mualliflik huquqi komplayensi"ni amaliyotga chuqur tatbiq etishdir [12]. Bu maxsus jarayon o'qitishga sarflangan barcha ma'lumotlarning kelib chiqish manbasini aniq hujjatlashtirishni va asl kontent yaratuvchilari uchun o'z asarlaridan foydalanishni texnik jihatdan taqiqlash yoxud cheklash mexanizmlarini ta'minlashni taqozo etadi. Qolaversa, tizimga kiritilgan yuz minglab asarlarni intellektual nazorat qilish va ularning

asl ijodkorlariga adolatli haq to'lashni ta'minlash uchun qonunchilikka "yangi mulkiy huquq" normasini kiritish hamda moliyaviy hisob-kitoblarni xavfsiz blokcheyn texnologiyasi orqali mikro-foizlar ko'rinishida to'lashni yo'lga qo'yish asosiy huquqiy yechim hisoblanadi [9].

Biroq, an'anaviy kontinental va anglo-sakson huquqiy hududlarida inson ishtirokisiz yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini berish ancha ziddiyatli masaladir. Garvard universiteti yuridik fakulteti (Harvard Law School) ekspertlarining tahlillariga yuzlansak, mashhur musiqachilar Drake va The Weeknd ovozlari taqlid qilib, SI yordamida mustaqil yaratilgan qalbaki qo'shiq mojarosi mualliflik huquqining naqadar murakkab ko'rinish olganini ochib beradi. Bu kabi murakkab kazuslarda tayyor asarga egalik qilishdan tashqari, SI ni o'qitishda litsenziyalanmagan ovoz va ohanglardan foydalanish orqali ham mualliflik, ham insonning shaxsiy nomulkiy huquqlari bevosita buziladi.

Buyuk Britaniya qonunchiligi muammoga o'ziga xos amaliy yechimni taklif etadi. Buyuk Britaniya "Mualliflik huquqi, dizaynlar va patentlar to'g'risida"gi aktining (CDPA) 9(3)-bo'limiga binoan, kompyuter vositasida yaratilgan asarlar ustidan mualliflik huquqi asarni yaratish uchun "barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirgan" shaxsga (ya'ni uni ishga tushirgan inson-prompterga yoki platforma operatoriga) berilishi qonun kafolatlangan. Ushbu norma ko'plab davlatlar uchun SI mahsulotlarining huquqiy maqomini belgilashda namuna vazifasini o'tamoqda [11].

SI atrofidagi eng bahsli muammolardan yana biri — algoritmlarni o'qitish ma'lumotlari (training data) muammosidir. Neyrotarmoqlarni takomillashtirish maqsadida millionlab himoyalangan mualliflik asarlaridan "adolatli foydalanish" (fair use) qoidasiga ko'r-koona yuzlanish hozirda keskin tanqid qilinmoqda. Yevropa Ittifoqining 2026-yilda yangilangan doirada to'laqonli kuchga kirgan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonuni aynan shaffoflikni talab etadi. Qonun hujjatiga muvofiq, fundamental SI modellarini ishlab chiquvchilar o'z tizimlarini o'qitish jarayonida Yevropa Ittifoqining mualliflik huquqi normalariga qat'iy amal qilishlari hamda o'qitish uchun foydalanilgan bazaviy kontentlarning ochiq hisobotini taqdim etishlari majburiy etib belgilandi.

Bunday xalqaro transformatsiyalar fonida O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektni huquqiy makonga integratsiya qilish jarayoni faollashmoqda [13]. 2025-yildan buyon ishlab chiqilayotgan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi maxsus qonun loyihalarida innovatsiyalarni rag'batlantirish bilan bir qatorda shaxs daxlsizligi, kiberxavfsizlik va intellektual mulk himoyasini muvozanatda ushlab turish ko'zda tutilgan [13]. Shuningdek, dipfeyk texnologiyalari vositasida shaxs qiyofasi (Samuel L. Jackson yoki avtor Joanna Penn kabi tanilgan shaxslar ishtirokidagi litsenziyalanmagan ovoz klonlari holatlarida kuzatilgani kabi) hamda original matnlarni manipulyatsiya qilishning oldini olish uchun aniq huquqiy sanksiyalar belgilanishi axloqiy va huquqiy ehtiyojga aylangan [9, 14].

Takliflar (Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha huquqiy yechimlar)

Yangi mulkiy huquqni joriy etish, Sun'iy intellekt modellarini o'qitish (machine learning) jarayonida mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan foydalanganlik uchun dastlabki mualliflarga adolatli haq to'lanishini kafolatlovchi maxsus "yangi mulkiy huquq" normasini qonunchilikka kiritish lozim. Ushbu tizim orqali olinadigan foyda va huquqlar SI platformasi egasi hamda ma'lumotlari bazaga kiritilgan asl ijodkorlar o'rtasida mutanosib taqsimlanishi shart. Millionlab matn va asarlardan SI o'qitish bazasida (training data) foydalanilishini yuridik jihatdan nazorat qilish hamda ularning har biriga mikro-foizlar (micro-percentages) asosida

qalamhaqi to'lashni ta'minlash maqsadida xavfsiz blokcheyn texnologiyasiga asoslangan avtomatlashtirilgan to'lov mexanizmini intellektual mulk tizimiga joriy etish zarur. "Opt-out" (rad etish) huquqini qonuniylashtirish. Yevropa Ittifoqining 2019/790-sonli Direktivasiga (DSM) tayangan holda, mualliflarga o'z asarlaridan ma'lumotlarni qazib olish va tahlil qilish (Text and Data Mining), xususan, generativ SI modellarini o'qitish maqsadlarida foydalanishni yuridik jihatdan taqiqlash yoxud cheklash (opt-out) bo'yicha kafolatlangan vakolat berilishi kerak. O'qitish ma'lumotlari bo'yicha shaffoflik majburiyati (Transparency). Yevropa Ittifoqining yangi "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonunidan (EU AI Act) kelib chiqib, yirik va fundamental SI modellarini ishlab chiquvchi kompaniyalar zimmasiga o'z tizimlarini o'qitishda qaysi mualliflik kontentlaridan foydalanganligi to'g'risidagi batafsil hisobotni (summary of training data) jamoatchilikka ochiqlash bo'yicha qat'iy yuridik majburiyat yuklatilishi zarur. Davlat ro'yxatidan o'tkazishda inson ishtirokini deklaratsiya qilish. AQSh Mualliflik huquqi idorasi (US Copyright Office) talablari amaliyotidan kelib chiqib, intellektual mulk obyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida muallif tomonidan asarning qaysi qismi bevosita inson mehnati bilan va qaysi qismi sun'iy intellekt vositasida yaratilganligini ochiq deklaratsiya qilish (bildirish) tartibini qonunan mustahkamlash lozim. Dipfeyk texnologiyalarini litsenziyalash va javobgarlik. Jismoniy shaxsning qiyofasi yoki ovozidan uning ruxsatisiz dipfeyk texnologiyalari orqali soxtalashtirib foydalanishni taqiqlovchi normalarni qabul qilish zarur. Shuningdek, kelajakda ovoz yoki qiyofadan tijorat maqsadida qonuniy foydalanishga ruxsat beruvchi maxsus intellektual litsenziya shartnomalarining yuridik asoslarini (subsidiary rights) ishlab chiqish davr

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining mislsiz darajada rivojlanib, avtonom ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lib borayotgani an'anaviy mualliflik huquqi tizimi oldiga jiddiy huquqiy chaqiriqlarni qo'yimoqda. Xalqaro intellektual mulk normalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi huquqiy reallikda sun'iy intellektni mustaqil huquq subyekti yoki asar muallifi sifatida tan olish huquqiy jihatdan imkonsizdir. Amaldagi qonunchilik huquqiy himoyani faqatgina insonning bevosita ijodiy mehnati mahsuliga nisbatan kafolatlaydi. Biroq, qonunchilikning ushbu konservativ yondashuvi amaliyotda yuzaga kelayotgan tijorat va mulkiy nizolarni to'liq hal eta olmaydi. SI vositasida generatsiya qilingan obyektlardan foydalanish, ularni tijoratlashtirish va xususan, generativ modellarni o'qitish jarayonida asl ijodkorlarning intellektual huquqlari ommaviy tarzda buzilishi xavfi saqlanib qolmoqda. Shu sababli, milliy intellektual mulk qonunchiligimizni zamon talablariga moslashtirishda quyidagi asosiy yechimlarga e'tibor qaratish muhimdir.

Birinchidan, SI tizimlarini o'qitishda o'z asarlaridan foydalanilgan dastlabki mualliflarning moliyaviy va ma'naviy huquqlarini himoya qiluvchi *yangi mulkiy huquq* mexanizmlari joriy etilishi lozim. Ikkinchidan, ilg'or xalqaro huquqiy tajribaga (xususan, Yevropa Ittifoqining "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonuniga) asoslangan holda, SI modellarini ishlab chiquvchilar va texnologik platformalar uchun axborot manbalari bo'yicha qat'iy shaffoflik va hisobdorlik majburiyatlari belgilanishi shart. Uchinchidan, shaxsning raqamli qiyofasi, ovozi va ijodiy uslubini litsenziyasiz manipulyatsiya qiluvchi texnologiyalarga (deep fakes) nisbatan huquqiy taqiqlar hamda qat'iy javobgarlik choralari qonun darajasida mustahkamlanishi zarur.

Ushbu huquqiy chora-tadbirlarning o'z vaqtida va tizimli amalga oshirilishi, bir tomondan, O'zbekistonda innovatsion sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun qulay va xavfsiz huquqiy muhitni yaratsa, ikkinchi tomondan, mualliflarning intellektual mulk huquqlari poymol etilishining oldini oladi va raqamli iqtisodiyotda adolatli muvozanatni ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5297046>
2. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 14-martdagi "Sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo'yicha etika qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i (Adliya vazirligi tomonidan 3787-raqam bilan ro'yxatga olingan). URL: <https://lex.uz/uz/docs/8083233>
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari (Mualliflik huquqi sohasi asoslari). URL: <https://siip.uz/uzb/copyright>
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. (2026-yil, 27-mart). "Sun'iy intellekt muallif bo'la oladimi?" tahliliy maqolasi. URL: <https://minjusttraining.uz/news/suniy-intellekt-muallif-bola-oladimi>
5. Kun.uz tahririyati. (2026-yil, 28-iyul). "Yuristlar kerak bo'lmay qoladimi? Sun'iy intellekt davrida huquqshunoslikning yangi qiyofasi". URL: <https://kun.uz/news/2026/07/28/yuristlar-kerak-bolmay-qoladimi-suniy-intellekt-davrida-huquqshunoslikning-yangi-qiyofasi>
6. Guadamuz, A. (2017). "Artificial intelligence and copyright". WIPO Magazine, World Intellectual Property Organization. URL: <https://www.wipo.int/en/web/wipo-magazine/articles/artificial-intelligence-and-copyright-40141>
7. Sharipova, N. A. (2025). "Mualliflik huquqi va sun'iy intellekt". Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 5(3), 94-97.
8. Axmadova, G. J. (2024). "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(1), 561-565.
9. Alliance of Independent Authors. (n.d.). "Commentary and Suggestions on Artificial Intelligence". WIPO Document: WIPO/IP/AI/2/GE/20/1.
10. Harvard Law School Today. "AI created a song mimicking the work of Drake and The Weeknd. What does that mean for copyright law?". URL: <https://hls.harvard.edu/today/ai-created-a-song-mimicking-the-work-of-drake-and-the-weeknd-what-does-that-mean-for-copyright-law/>
11. Scalewise. "EU AI Act 2026 Changes and Copyright Implications". URL: <https://scalewise.com/resources/eu-ai-act-2026-changes/>
12. Serov, A. (Hugging Face). "AI Copyright Compliance". URL: <https://huggingface.co/blog/ArtemSerov/ai-copyright-compliance>
13. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. (2006-yil 20-iyul).
14. Alliance of Independent Authors. (n.d.). "Commentary and Suggestions on Artificial Intelligence: Ownership and Accountability". WIPO Document: WIPO/IP/AI/2/GE/20/1.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.